

## ANDIJON SHAHRIDA BOBURSHOX KO'CHASINING IKKI QISMINI BOG'LAYDIGAN ZAMONAVIY KO'PRIKNING O'TKAZUVCHANLIGINING TAHLILI

To'raboyev Holmurod Rustamjon o'g'li  
Mahmudjonov Bahrom Abduqodir o'g'li  
*Andijon mashinasozlik instituti katta o'qituvchi  
holmurodturaboyev@gmail.com +998 99 499 46 08*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Andijon shahrida Bobur shoh ko'chasing ikki qismini bog'laydigan zamonaviy ko'priknning qurilishi natijasida kelib chiquvchi yangi omillar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *jamoat transporti, dastur, bosh reja, ustuvorlik, yo'l infratuzilmasi, tirbandlik, temir yo'l liniyasi, ko'pri, shaxsiy transport, cheklov, imtiyoz belgilar.*

## CONDUCTIVITY ANALYSIS OF THE MODERN BRIDGE CONNECTING TWO PARTS OF BOBURSHOKH STREET IN ANDIJAN CITY

**Annotation:** *In this article, new factors and ways to eliminate them are shown as a result of the construction of a modern bridge connecting two parts of Babur avenue in Andijan city.*

**Key words:** *public transport, program, master plan, priority, road infrastructure, traffic, railway line, bridge, private transport, restriction, privilege signs.*

## АНАЛИЗ ПРОВОДИМОСТИ СОВРЕМЕННОГО МОСТА, СОЕДИНЯЮЩЕГО ДВЕ ЧАСТИ ПРОСПЕКТА БОБУРА В ГОРОДЕ АНДИЖАН

**Аннотация:** *В данной статье показаны новые факторы и пути их устранения в результате строительства современного моста, соединяющего две части проспекта Бабура в городе Андижан.*

**Ключевые слова:** *общественный транспорт, программа, генеральный план, приоритет, дорожная инфраструктура, движение, железнодорожная линия, мост, частный транспорт, ограничение, знаки льгот.*

So'nggi yillarda aholiga avtotransport xizmati ko'rsatishni yaxshilash, jamoat transporti yo'nalishlari tarmog'ini kengaytirish va harakat tarkibini zamonaviy, ekologik toza avtobuslar bilan yangilash, jamoat transporti infratuzilmasini tubdan yangilash bo'yicha keng ko'lamlı ishlар amalga oshirildi. Shunga bilan birgalikda aholining yuqori sifatli va qulay yo'lovchi tashish xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirish, sohada bozor tamoyillarini joriy etish, xususan moliyalashtirish tizimi va tarif siyosatini takomillashtirish orqali xususiy sektor uchun jozibali biznes muhitini yaratish maqsad qilib olinmoqda. Shunga asosan, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-son hamda yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo‘llarda avariya va o‘lim holatlarini keskin qisqartirish, shu jumladan harakatni boshqarish tizimini to‘liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummiliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarorlari tasdiqlangan. [1,2]

Mazkur davlat dasturlarida: Andijon shahrining transport va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish Bosh rejasini ishlab chiqish, jamoat transportining yangi yo‘nalishlar tarmog‘ini shakllantirish, jamoat transportida yo‘lkira haqining avtomatlashtirilgan to‘lov tizimini (ATTO) to‘liq joriy qilish, Andijon shahar jamoat transportida tarif tizimini takomillashtirish, jamoat transporti ustuvorligini ta‘minlash maqsadida yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish, yo‘l infratuzilmasini kompleks takomillashtirish, avtomobil yo‘llarida harakatni boshqarish tizimini raqamlashtirish, jamoat transportini rivojlantirish va raqamlashtirish, yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha tashviqot ishlarini kuchaytirish, bolalarga yo‘l harakati qoidalarni amaliy o‘rgatishni yo‘lga qo‘yish hamda haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda avtovoz vositalarining texnik holati ustidan nazoratni kuchaytirish belgilab o‘tilgan.

Shahar hududida jamoat transporti harakatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etuvchi omillardan biri bu Andijon shahar markazini kesib o‘tuvchi Toshkent – Andijon temir yo‘l liniyasi hisoblanadi. Ushbu temir yo‘l liniyasi faqatgina Alisher Navoiy shoh ko‘chasi bilangina kesishmaydi. Qolgan barcha avtomobil yo‘llarida bilan kesishadi. Bu esa shahar jamoat transporti harakat jadvaliga ta’sir etib undan foydalanish samaradorligini pasaytirib kelmoqda (1-rasm). [3,4]

Bobur shoh ko‘chasida yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi haydovchilar alternativ bo‘lgan yo‘l qismlaridan foydalanib kelishmoqda (2-rasm). Ya’ni yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi haydovchilar Sanoat ko‘chasi orqali Amir Temur shoh ko‘chasi orqali 5

km.dan ortiq bo‘lgan masofani bosib o‘tishmoqda. Shu bilan birgalikda Sanoat ko‘chasi hamda Amir Temur shoh ko‘chasi kesishgan qismida qo‘riqlanadigan temir yo‘l uchastkasi mavjudligi mavjud yo‘l qismlarida tirbandliklar keltirib chiqarmoqda.

Andijon shahrida jamoat transporti ustuvorligini ta‘minlash, yo‘l infratuzilma obyektlarini rivojlantirish jamoat transporti yo‘nalishi bilan parallel olib borish



2-rasm

maqsadida, mazkur Bobur shoh ko'chasining ikki qismi Andijon temir yo'l vokzali ustidan o'tuvchi 700 metr uzunlikdagi zamonaviy ko'prik orqali birlashtirilmoqda.

Endilikda Bobur shoh ko'chasining ikki qismini bog'lovchi ko'prik jamoat transporti ustuvorligini ta'minlab uning samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

O'rganishlar natijasida Bobur shoh ko'chasida barpo etilayotgan zamonaviy ko'prik topshirilishi natijasida quyidagi muammolar kelib chiqishi aniqlandi:

- Bobur shoh ko'chasining bir qismi OTM bilan bog'langan ikkinchi qismi Yangi bozor hududi hisobiga ikkala qismlarda transportlar yo'l chetlarida transport vositalarini qo'yib sun'iy tirbandliklar keltirib chiqarishi

- Mavjud qismlarda transportlar uchun avtomobilarni vaqtinchalik to'xtash joylarining yetarli darajada emasligi

- Hozirgi mavjud alternativ yo'llar zamonaviy ko'prik qurilishi natijasida Yangi bozor hududiga oqimlarni to'g'ridan to'g'ri kirib kelishiga olib kelib tabiiy tirbandliklar kabi omillarni yuzaga chiqaradi. [5,6]

Ushbu kabi muammolarni oldini olishda birinchi navbatda shahar jamoat transporti ustuvorligini mavjud qismlarda ta'minlash, shaxsiy transport vositalariga cheklovlar joriy etish, avtomobillar mavjud tirbandliklardan chiqib ketish uchun ba'zi ko'chalarda imtiyoz belgilarini qo'llash, Yangi bozor hududidagi mavjud avtomobillar to'xtash joylarini uzoqroqda joylashtirish hamda avtobuslar uchun maxsus avtomobil yo'llarini tashkil etish maqsadga muvofiq ekanligini.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-59-son Qarori <https://lex.uz/docs/-6386205#-6387283>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo'ljallangan "Xavfsiz va ravon yo'l" umummiliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" Qarori <https://lex.uz/docs/-6106551>
3. B.A.Xojev. Avtomobillarda yuk va pasajir tashish asoslari. Darslik T., "O'zbekiston", 2002.
4. В.А Гудков. Пассажирские автомобильные перевозки – Учебник 2006 г. 218-296 betlar.
5. L.Y.Bakirov M.A.Nurdinov "Avtomobillarda xalqaro yuk tashish qoidalari". T. 2021 370 bet.
6. Nurdinov M., Dumakhonov F. TRANSIT ROUTES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN WHICH IMPACT ON ORGANIZATION AND TRAFFIC SAFETY //Solution of social problems in management and economy. – 2022. – T. 1. – №. 4. – S. 109-115.